

PEDAGOGIKA

ILMIY-NAZARIY VA METODIK JURNAL

6/2023

Bosh muharrir:

Kirgizbayev Abdug'affor Karimjonovich

Maxmudov Abduxalim Xamidovich
(bosh muharrir o'rinbosari)

Tahrir hay'ati:

Djurayev Risbay Xaydarovich
Abdullayeva Shaxzoda
Bulatov Saidaxbor
Ibraimov Xolboy Ibragimovich
Kamilova Nodira
Karlibayeva Guljahan
Quronov Maxammadjon
Mamadaliyev Abdumajid
Medetova Raushan
Muslimov Narzulla
Murtozayeva Maxfuza
Safarova Roxat
Tojiboyeva Xilolaxon
Xakimova Muxabbat
Xodjayev Begzod

Muassis – Nizomiy nomidagi Toshkent

davlat pedagogika universiteti. Jurnalda pedagogika, psixologiya, o'qitishning metod va texnologiyalariga oid ilmiy-nazariy, ilmiy-metodik maqolalar o'zbek va rus tillarida chop etiladi.

Jurnalga Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasining 2014-yil 26-maydagi 02-004-sonli "Ommaviy axborot vositasi davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risida guvohnoma"si olingan va unga O'zbekiston Respublikasi Milliy kitob palatasining 2008-yil 30-iyundagi 511/S shartnomasi asosida Davriy nashrlarning Xalqaro standartlar (ISSN) – 2010-5320 raqami taqdim etilgan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya Komissiyasi rayosatining 2013-yil 30-dekabr-dagi 201/3-sonli qarori bilan ro'yxatga olingan.

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA DIAGNOSTIK KORREKSIYALASH FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH

Jansaitova Jazira Baxitjanovna, ChDPU o'qituvchisi

Annotasiya. Mazkur maqolada zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida diagnostik korreksiyalash faoliyatini takomillashtirishning funksional modeli tafsiloti berilgan. Xalqaro baholash dastur talablari va zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida o'quvchilarning o'qish savodxonligi bo'yicha ko'nikmalarini sinfdan tashqari mashg'ulotlar jarayonida shakllantirish mexanizmi ko'rsatilgan.

Tayanch so'zlar: *boshlang'ich ta'lim, pedagogik diagnostika, korreksiya, diagnostik vositalar.*

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ДИАГНОСТИЧЕСКОЙ КОРРЕКЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В НАЧАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ

Жансаитова Жазира Бахитжановна, преподаватель ЧГПУ

Аннотация. В статье подробно рассмотрена функциональная модель совершенствования диагностико-коррекционной деятельности учащихся младших классов на основе современных педагогических подходов. На основе требований международной программы оценивания и современных педагогических подходов показан механизм формирования навыков читательской грамотности учащихся в процессе внеклассной деятельности.

Ключевые слова: *начальное образование, педагогический диагноз, коррекция, диагностические средства.*

IMPROVING DIAGNOSTIC CORRECTION ACTIVITIES IN PRIMARY EDUCATION

Jansaitova Jazira Baxitjanovna, teacher at ChSPU

Abstract. The article examines in detail the functional model for improving the diagnostic and correctional activities of primary school students based on modern pedagogical approaches. Based on the requirements of the international assessment program and modern pedagogical approaches, the mechanism for developing students' reading literacy skills in the process of extracurricular activities is shown.

Key words: *primary education, pedagogical diagnosis, correction, diagnostic tools.*

Kirish. Zamonaviy pedagogik yondashuvlar ta'lim jarayonida faqat nazariy bilimlar bilan cheklanib qolmay, balki shaxsni har tomonlama rivojlantirishga hamda ularda hayotiy ko'nikmalarni shakllantirish kerakligini ta'kidlamogda. Bugungi faol transformatsiyalashuv davrida ta'lim tizimidagi shaxsga yo'naltirilgan zamonaviy pedagogik yondashuvlar o'quvchilarda yashayotgan davrga xos bo'lgan ko'nikmalarni shakllantiradi. Shaxsga yo'naltirilgan zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida beriladigan zamonaviy ko'nikmalar o'quvchilarning har tomonlama o'sishini ta'minlaydi [1-4], hayotdagi qiyinchiliklarni yengib o'tishga va ichki imkoniyatlaridan foydalangan holda kelajakda jamiyat taraqqiyotiga hissa qo'shish imkonini oshirishi bilan xarakterlanadi. Shaxsga yo'naltirilgan zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosini tashkil etilayotgan o'quv dasturlari, didaktik adabiyotlar va o'qitish vositalari o'quvchilarni kundalik hayotda duch keladigan hayotiy muammolarni hal qilish uchun zarur ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilganligi o'quv dasturi va o'qitish vositalarining zamonaviyligini belgilovchi asosiy mezon hisoblanadi.

Asosiy qism. Zamonaviy ta'limning maqsadi o'quvchilarga bilim berish va ularni hayotda qo'llash usullarini o'rgatishdir. Ushbu turdagi ta'limni olish orqali o'quvchilar amaliy

hayotdagi qiyinchiliklarni samarali yengib, ijtimoiy taraqqiyotga ijobiy hissa qo'shishlari mumkin. Zamonaviy ta'limga bo'lgan ehtiyoj nafaqat akademik o'quv dasturlari evolyusiyasi, balki o'quvchilarni jadal texnologik taraqqiyotga tayyorlash bilan bog'liq. Shaxsga yo'naltirilgan zamonaviy pedagogik yondashuvlar o'quvchilarni an'anaviy bilimlar bilan bir qatorda ularni o'zgaruvchan vaqtga moslashtiradi. Shu o'rinda, pedagogik diagnostika va pedagogik korreksiyalashning asosiy farqli tomonlari alohida ta'kidlab o'tish lozim: pedagogik diagnostika o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini aniqlash va tahlil qilishda foydalaniladi. Diagnostik sinovlar, testlar, anketalar va boshqa tahlil usullari o'quvchilarning bilim darajasini, ma'lumotlarni o'rganish va tushuntirish darajasini aniqlash uchun qo'llaniladi. Pedagogik korreksiyalash esa, o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini oshirish, ularning muammolarini bartaraf etish va o'zlashtirishlarini rivojlantirishda foydalaniladi. Bunda o'quvchilar uchun maxsus mashqlar, o'zlashtirish rejasi tuziladi. Pedagogik korreksiyalash diagnostik natijalarga asoslangan holda o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini oshirish, ularning muammolarini bartaraf etish va ularning o'zlashtirishlarini rivojlantirish uchun amalga oshiriladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini individual yondashuvlar asosida diagnostik korreksiyalash faoliyatini amalga oshirishda quyidagi usullardan foydalanish ijobiy samara beradi:

1. Test: o'quvchilarning bilim darajasi va o'zini o'zi anglash darajasini, shuningdek, ular duch kelishi mumkin bo'lgan har qanday qiyinchiliklarni aniqlash uchun ishlatilishi mumkin.

2. Kuzatish: kuzatish orqali o'quvchilarning o'zlashtirishi to'g'risida ma'lumot to'planadi.

3. Portfolioni baholash: portfolio – o'quvchilarning mustaqil ishlari, topshiriqlari, insholari va boshqa ijodiy tarzda bajargan materiallari majmuasini o'z ichiga oladi.

4. Kouching suhbat (motivatsion suhbat): o'quvchilarning qiyinchiliklarini aniqlash jarayonida yordam berish uchun suhbatlar o'tkazish mumkin. Yakkama-yakka suhbatdan o'quvchining fikrini tinglash, ularga o'z-o'zini anglash jarayonida yordam berish uchun maslahat va tavsiyalar berish mumkin. Bu usullar pedagogik diagnostika va korreksiyalash faoliyati jarayonida keng qo'llaniladi. Shu maqsadda zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida boshlang'ich sinfda diagnostik korreksiyalash faoliyatini takomillashtirishning funksional modeli biz tomonimizdan ishlab chiqilgan bo'lib, mazkur model maqsad, jarayon, baholash va natija komponentlaridan tashkil topgan.

Diagnostik korreksiyalash o'quvchilarning o'zlashtirishlarini rivojlantirish uchun mos keladigan usullar va yo'llarni aniqlashga yordam beradi. Bu usullar o'quvchilarning muammolarini yechish, motivatsiyalarini oshirish va o'qish qobiliyatlarini rivojlantirish uchun ishlatiladi. Mazkur model doirasida zamonaviy pedagogik yondashuvlar sifatida dunyo ta'limida e'tirof etilayotgan, boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish va tushunish ko'nikmalarini baholovchi xalqaro PIRLS dasturi talablari asosida pedagogik diagnostik korreksion faoliyatni amalga oshirishda quyidagi uslubiy tavsiyalar ishlab chiqildi.

PIRLS dasturi talablari asosida pedagogik diagnostik korreksion faoliyatni amalga oshirish maqsadini belgilash: diagnostik sinovlar PIRLS dasturi talablari bo'yicha boshlang'ich sinfdagi o'quvchilarning o'qish ko'nikmalarini, badiiy mazmundagi va axborot matni tushunishini aniqlashga yo'naltirilgan. Bu maqsad bilan diagnostik sinovlar tuziladi.

Testlar va savollar: PIRLS dasturi talablari bo'yicha diagnostik sinovlar uchun tayyorlangan testlar va savollar o'quvchilarning matn tushunish darajasini, matn tushunishiga oid savollar, matnning ma'noni tushunish va o'qish ko'nikmalarini aniqlashga yo'naltirilgan.

Tahlil va natijalar: diagnostik sinovlar PIRLS dasturi talablari bo'yicha o'quvchilarning o'qish va matn tushunish darajasini tahlil qilishga yo'naltiriladi. Natijalar o'quvchilarning

o'qish ko'nikmalarini, matn tushunish darajasini va umumiy o'qish qobiliyatini o'rganishga yordam beradi.

Monitoring va baholash: PIRLS dasturi talablari bo'yicha diagnostik sinovlar tuzilgan va o'qituvchilar o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini monitoring qiladi. Bu monitoring yordamida o'qituvchilar o'quvchilarning o'zlashtirish darajasidagi o'zgarishlarni kuzatib boradi va kerakli o'zgartirishlarni amalga oshiradi. Shuningdek, PIRLS dasturi talablari bo'yicha diagnostik sinovlar o'quvchilarning o'qish va matn tushunish darajasini aniqlash, tahlil qilish va monitoring qilishda yordam beradi va zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida boshlang'ich sinfda diagnostikani amalga oshirishda muvaffaqiyatga erishishga yordam beradi. Zamonaviy shaxsni tarbiyalash va o'quvchilarda hayotiy va akademik ko'nikmlarni shakllantirish maqsadida quyidagi pedagogik faoliyatlar amalga oshirilishi biz tomonimizdan taklif etilayotgan modelda tahlil qilingan.

O'quvchi bilan individual ishlash loyihalarini tuzish: o'qituvchi o'quvchilarning har birining shaxsiy o'qish qobiliyatlariga va o'zlashtirish darajasiga e'tibor qaratadi. Bu maqsadda o'quvchilarning o'qish, yozish, matn tushunish va boshqa ko'nikmalarini aniqlash uchun diagnostik sinovlar amalga oshiriladi. Bunda o'quvchi loyihalari tuzish va ularni bajarish uchun kerakli materiallar tayyorlashda individual tarza faoliyat olib borilayotgan o'quvchi qiziqishlari va bilish darajasi hisobga olinadi.

Kooperativ o'quvchi faoliyati: kooperativ o'quvchi faoliyati o'quvchilarning bir-biri bilan hamkorlik qilishini va o'z fikrlarini bir-biri bilan muhokama etishini o'rgatadi. Bu faoliyatlar o'quvchilarning ijtimoiy, kommunikativ va hamkorlik qobiliyatlarini rivojlantiradi.

O'quvchi motivatsiyasini oshirish: o'qituvchi o'quvchilarning motivatsiyasini oshirish uchun har xil usullar ishlatadi. Masalan, o'quvchilarning qiziqishlariga qarab, ularning qiziqishlariga mos keladigan darslar tuziladi. Shuningdek, o'quvchilarning muvaffaqiyatlariga qarab ularni yuqori natijalarga erishishlari uchun yordam beriladi.

Ishonchli ta'limiy muhit yaratish: o'qituvchi o'quvchilarning ishonchli muhitda o'rganishlarini ta'minlash uchun harakat qiladi. Bu muhit o'quvchilarning o'z fikrlarini ifoda qilishiga, xatolarni qilishiga va o'zlashtirishlarini rivojlantirishiga yordam beradi.

Xulosa. Zamonaviy shaxsni tarbiyalash va o'quvchilarda hayotiy va akademik ko'nikmlarni shakllantirish maqsadida individual o'quvchi loyihalari tuzish, kooperativ o'quvchi faoliyati, o'quvchi o'zlashtirishini oshirish, o'quvchi motivatsiyasini oshirish va ishonchli muhit yaratish kabi pedagogik faoliyatlar amalga oshirilishi kerak. Bu faoliyatlar o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini oshirish va ularning hayotiy va akademik ko'nikmalarini shakllantirishda muvaffaqiyatga erishish uchun juda muhimdir.

Adabiyotlar:

1. Abdullaeva Sh.A., Ro'zieva D.I. Pedagogik diagnostika va korreksiya - T.: TDPU, 2018.
2. Жансаитова Ж.Б., Таджибаев И.У. Бастауыш сынып оқушыларына арналған психологиялық-педагогикалық диагностика // Муғаллим хем узликсиз билимлендириў. - N., 2023. - 1/3-son. - B. 287-292.
3. Jansaitova J.B. Boshlang'ich sinflarda psixologik diagnostika usullari // O'zMU xabarlari. - T., 2022. - 1/10/1-son. - B. 75-78.
4. Jansaitova J.B., Tadjibaev I.U. Preliminary results of pedagogical diagnostics for primary class students // Перспективы современной науки и образования, Международная научно-практическая конференция. - Томск, 2023. - С. 158-164.

PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA, PEDAGOGIK INNOVATIKA	
Камилова Н.Г., Анварова Н. Психологические детерминанты буллинг-поведения среди младших школьников и подростков.....3	pedagogik muammo sifatida.....97
Капалыгина И.И., Шестирекова Н.Г. Педагогические условия формирования асертивных свойств личности в социальной сети.....8	Karimjonov A. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarini innovatsion pedagogik tajriba faoliyatini o'rganish.....102
Nurmatov A. O'qituvchi faoliyati tarkibida tarbiyachilik ko'nikmalarining uyg'unlashuvi.....12	Jo'raqulova D.Z. Boshqaruv faoliyatida rahbar muloqotning psixologik xususiyatlari.....106
Aripov Sh.O. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'g'il bolalarni oilaviy munosabatlarga tayyorlash metodlari.....16	Kuchkarov B.T. Bo'lajak harbiy ofitserlarda umummadaniy kompetetlikni rivojlantirish – dolzarb muammo.....111
Nazarov A.S. Yoshlar muhtitida eksremiz psixoprofilaktikasining ijtimoiy-psixologik mexanizmlari.....21	Ochilov F.I. Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarida rivojlantiriladigan tabiiy-ilmiy tafakkur mazmuni.....114
Hazanov T.A. Ijtimoiy va huquqiy xatar guruhiga kiruvchi yoshlarni ijtimoiy himouya qilish yo'nalishlari.....26	Shoyimova Sh.S. Kasbiy so'nish shifokor-pedagog shaxsining ijtimoiy-psixologik muammolaridan bir sifatida....119
Qaraxnova L.M. Ta'lim jarayonida o'quvchilarda tadqiqotchilik kompetentligini rivojlantirishda xalqaro baholash tadqiqotlari dasturidan foydalanishning samaradorligi.....36	Hamdamova M.Z. Uzluksiz kasbiy ta'lim tizimini rivojlantiruvchi tamoyillar.....122
Husanov F.O. Pedagogik faoliyatlarda ta'lim texnologiyalarini qo'llashning o'ziga xosligi.....41	Qurbanova D.A. Ingliz tili darslarida o'smirlar tafakkurini rivojlantirishning ahamiyati.....126
Ким И.Н. Возможности и проблемы использования цифровых технологий в дошкольном образовании.....46	Sangindikova N.J., Bekbergenova D. Iroda sifatini eksperimental o'rganish.....129
Nurmatova I.T. Maktagacha katta yoshdagi bolalarda ijodiy faollikni shakllantirishda musiqiy teatr faoliyatlarining roli.....48	Yusupova K.N. Dars jarayonida kreativ ta'lim muhitini tashkil etishning ahamiyati.....133
Qayumova D.N. Inklyuziv ta'lim bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy faoliyatiga doir nazariylar.....52	Rashidov X.K. Mahallarda ma'naviy-axloqiy muhitni sog'lomlashtirishning pedagogik omillari.....137
Гафурова Н.М. Различные модели темперамента: особенности и сходства.....56	Shomuratov R.Sh. Zamonaviy ta'lim tizimida marketingni o'ziga xos o'rni.....142
Jabbarov Z.R. Harbiy ta'limda innovatsion texnologiyalarni jary etish va ta'lim sifatini takomillashtirish.....60	Davronova F.P. Muammoli ta'lim – rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyasi.....145
Dadaboyev U.M. Bo'lajak ofitserlarda bag'rikenglikni rivojlantirish.....67	Abdurashidov A.A. Milliy hunarmandchilikning ijtimoiy hayotga tutgan o'rni.....149
Mirzaev A.M. Harbiylashtirilgan ta'lim muassasalarida kursantlar belbog'li kurash bo'yicha tayyorgarlikni oshirishning innovatsion usullarini o'rganish imkoniyatlari.....71	Yakubova S.K. Yengil dizartriyali bolalarda monologik nutqini rivojlantirish.....151
Surovov I.M. Ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarning rivojlantirish tarixi.....75	Sayfullayev A.S. Imitatsion o'yinlardan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari.....155
Наримбетова З.А. Общие вопросы методики обучения решению задач в начальных классах.....79	Xakimova B.M. Gender o'z-o'zini rivojlantirishda o'smirlarning mustaqil qaror qabul qilishning aosiyo millari.....159
Vaxobov A.A. Bo'lajak chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik o'qituvchisining harbiy pedagogik madaniyatini shakllanishi va rivojlanishi.....83	Оразбаева Г.Ж. Проблемы самоактуализации подростков в современном обществе.....163
Saitmuradov O'.B. Malaka oshirish jarayonida tinglovchilar axborot kommunikatsiya kompetentligini rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalari.....89	Kuchkinov A.Yu. Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalarida ta'lim asosida ekopedagogik kompetentligini rivojlantirish modeli.....167
Matupayeva Sh.Z. Inklyuziv ta'lim sharoitida boshlang'ich ta'limda fanlarini o'qitishning didaktik imkoniyatlari.....93	Камилова А.Б. Педагогические аспекты формирования регулятивных действий у учащихся начальных классов.....171
Turakulov B.N. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarning ekopsixologik kompetentligini takomillashtirish muhim	Менгаров Х.Э. О методических аспектах понятия «предельного перехода».....175
	Seytnazarova G.A. Bo'lajak o'qituvchilarda dialogik madaniyatni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari.....180
	Tilavova S.B. Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarning ekologik kompetentligini takomillashtirishda Steam yodashuv.....184
	Mamatova A.M. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining axloqiy madaniyati tarkibi.....188
	Jansaitova J.B. Boshlang'ich ta'limda diagnostik korreksiyalash faoliyatini takomillashtirish.....192